




# YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 64 (1663), 2026-yil 3-aprel, juma



### O'zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING 35 YILLIGINI KENG NISHONLASHGA TAYYORGARLIK KO'RISH VA UNI O'TKAZISH TO'G'RSIDA

Milliy suverenitet va davlat mustaqilligi har qaysi mamlakatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyotining eng asosiy sharti va garovidir. Bu hal qiluvchi omillar davlatning xalqaro huquq subyekti sifatida dunyo hamjamiyatida munosib o'rin egallashi, xalqning tinch va farovon hayotini ta'minlash, uning barcha manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Bizning milliy mustaqilligimiz mard va matonatli xalqimizning qat'iy irodasi, istiqloq yo'lida kurashgan fidoyi ajdodlarimiz orzu-umidlarining ro'yobi bo'lib, Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan ezu ishlarimizning mustahkam asosi, kelajak avlodlarimiz uchun bezovdali yetkazishimiz shart bo'lgan buyuk va muqaddas qadriyatdir.

Mamlakatimizning milliy suvereniteti va davlat mustaqilligi g'oyalarning siyosiy-huquqiy kafolatlarini o'zida mujassam etgan yangi tahrirdagi Konstitusiyamiz hamda "O'zbekiston — 2030" strategiyasi asosidagi taraqqiyot yo'limiz inson qadr-qimmatini yuksaltirish, ko'p millatli jamiyatimizda do'stlik va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, milliy urf-odat va an'analarni asrab-avaylash, yurtimizda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, uning mudofaa qobiliyatini kuchaytirish, mintaqada yaxshi xo'shnchilikni rivojlantirish hamda Vatanimizning xalqaro obro'-e'tiborini oshirishda mustahkam tayanch bo'lib kelmoqda.

Milliy istiqloqimizning davlatchiligimiz tarixi, hozirgi va kelajak hayotimiz uchun beqiyos ahamiyatini hisobga olib, O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini Yangi O'zbekistonning bugungi ulkan salohiyati va jahon maydonidagi nufuziga muvofiq yuksak darajada, munosib nishonlash maqsadida qaror qilaman:

- Quyidagilar:
  - "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" degan bosh g'oyani o'zida mujassam etgan g'oyaviy-badiiy konsepsiyasi va dastur 1- va 2-illovalarga muvofiq;
  - O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish bo'yicha respublika komissiyasi tarkibi 3-illovaga muvofiq tasdiqlansin.
- Respublika komissiyasi (A. Aripov):
  - mustaqillikning 35 yilligini Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri, viloyat va tuman (shahar) markazlarida, barcha mahallalar, qishloq va ovullarda, shuningdek, vazirlik va idoralar tizimida munosib nishonlash maqsadida konsepsiyaning mazmuni va asosiy yo'nalishlariga muvofiq chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish va ijro etishni ta'minlash.
  - Bunda quyidagi ustuvor yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish:
    - Yangi O'zbekistondagi amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida yuzaga kelgan ulkan imkoniyat va yutuqlarni keng yoritish;
    - mamlakatimiz iqtisodiyoti barqaror sur'atlarda jadal rivojlanib borayotganligi natijasida fuqarolarimizning turmush farovonligi ortib borayotganligini ko'rsatib berish;
    - yurtimizning tinchligi va chegaralar daxlsizligini ta'minlashga xizmat qiluvchi mudofaa salohiyatini mustahkamlash borasidagi islohotlarni yoritish;

(iv) istiqloq tufayli milliy qadriyatlar, davlatchilik, fuqarolik jamiyati institutlari, jumladan, mahalla tizimini rivojlantirish bo'yicha erishilgan yutuq va natijalar ahamiyatini ta'kidlash;

(v) nuroniylar, xotin-qizlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam manfaatlarini ta'minlashga, yoshlarning "Yangi O'zbekistonning bunyodkorlari" sifatida bilim va kasb egallashlari, tadbirkorlik tashabbuslari va iste'dodlarini ro'yogga chiqarishga zarur sharoitlar yaratilganligiga urg'u qaratish;

(vi) millatlararo do'stlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini saqlash va kuchaytirishni barcha fuqarolarning muqaddas burchi sifatida targ'ib qilish;

(vii) bayram tadbirlariga barcha yoshlar, ijtimoiy va etnik guruhlarda vatandoshlarning faol jalb etilishini ta'minlash;

b) ilm-fan, ta'lim, madaniyat, adabiyot va san'at namoyandalari, sportchilar, jamoatchilik vakillaridan iborat badiiy-ijodiy guruhlar tuzish hamda ular ishtirokida aprel-sentyabr oylari davomida respublika bo'yab keng ko'lamdagi ma'naviyat-ma'rifiy tadbirlar va ijtimoiy loyihalarni o'z ichiga olgan "Mustaqillik to'yi" (festivali) tadbirlarini o'tkazish;

d) Toshkent shahrida o'tkaziladigan asosiy bayram tadbiriga tayyorgarlik ko'rishda taniqli ssenarist va rejissyorlar, shoir va yozuvchilar, xonanda va bastakorlar, baletmeysterlar, sahna rassomlari, iste'dodli yosh ijrochilarni jalb etish;

e) mustaqillikning 35 yilligi arafasida mamlakatimizning yirik sanoat, madaniyat, ta'lim va sport muassasalarining tantanali ochilish marosimlarini yuqori saviyada tashkil etish choralarini ko'rsin.

3. Belgilansinki, Madaniyat vazirligi Toshkent shahrida bo'lib o'tadigan asosiy bayram tadbiriga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha mas'ul tashkilot hisoblanadi.

4. Badiiy akademiya, Madaniyat vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi 2026-yil 1-iyunga qadar milliy mustaqillik va suverenitet g'oyalari, Yangi O'zbekiston bunyodkorlari qiyofasini o'zida aks ettirgan "Vatan fidoyilari" ramziy monumentining eskiz loyhasini ishlab chiqsin va Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

Ushbu monument Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tuman va shaharlarda 2026-2030-yillarda barpo etilayotgan umummilliy birdamlik bog'larining markaziy qismida o'rnatilishi hisobga olinsin.

5. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Yangi O'zbekiston taraqqiyoti tadqiqotlari instituti, "Yuksalish" umummilliy harakati, "Taraqqiyot strategiyasi" markazi bilan birgalikda 2026-yil 1-avgustga qadar har bir sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning natijalari va erishilgan yutuqlarga bag'ishlangan "Mustaqillik zafarnomasi" maxsus kitob-albomini tayyorlasin.

6. Yoshlar ishlari agentligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi 2026-yil aprel oyidan ijtimoiy tarmoqlarda #Mustaqillik35,

#Uz35 xeshteglarida targ'ibot aksiyalarini (fleshmoblar, podkastlar, viktorina va boshqalar) boshlasin.

7. Kinematografiya agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston milliy media birlashmasi 2026-yil aprel oyidan boshlab "35 yillik istiqloq yilnomasi" ruknida mustaqilligimiz tarixiy bosqichlari, erishilgan yutuqlar va bunyodkorlik ishlarini yorituvchi turkum hujjatli filmlar, ko'rsatuvlar tayyorlash va telekanallarda namoyish etilishini ta'minlasin.

8. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati, Adliya vazirligi hamda Qonunchilik va huquqiy siyosat institutining 2026-yil avgust oyida Toshkent shahrida "Mustaqillik O'zbekiston — 35 yillik taraqqiyot yo'li: islohotlar, natijalar va istiqbol" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyani o'tkazish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

9. Millatlararo munosabatlarda va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mita "Vatandoshlar" jamoat fondi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Tashqi ishlar vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi bilan birgalikda 2026-yil avgust-sentyabr oylarida xorijdagi vatandoshlar va o'zbek diasporasi vakillari ishtirokida "Mustaqillik O'zbekiston — g'ururim, iftixorim" shiori ostida madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etsin.

10. Markaziy bank 2026-yil 1-sentabrga qadar "Mustaqillikning 35 yilligi" esdalik oltin tangasini zarb etish choralarini ko'rsin.

11. O'zbekiston mahallalari uyushmasi, Transport vazirligi 2026-yil 1-mayga qadar tegishli yangi tashkil etilgan mahallalardan hamda temir yo'l stansiyalaridan biriga "Mustaqillikning 35 yilligi" nomini berish bo'yicha takliflarni kiritсин.

12. Belgilab qo'yilsinki, o'tkaziladigan bayram tadbirlari:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda — tegishli mahalliy budgetlarning qo'shimcha manbalari hamda homiylik mablag'lari hisobidan;
- Toshkent shahrida — Respublika komissiyasi tomonidan tasdiqlangan xarajatlar smetasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining respublika budgeti va Toshkent shahar mahalliy budgeti mablag'lari hisobidan teng ulushlarda moliyalashtiriladi.

13. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, "Dunyo" axborot agentligiga yurtimiz mustaqilligi, Yangi O'zbekistonning rivojlanish yo'li va xalqimizning birdamligi haqida turkum materiallar tayyorlash va tarqatish tavsiya etilsin.

14. Respublika komissiyasi mazkur qaror ijrosini nazorat qilish, har oyda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga axborot kiritib borish, zarur holdarda, qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rishni ta'minlasin.

15. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Toshkent shahri, 2026-yil 1-aprel

SH. MIRZIYOYEV

## BUXORO VILOYATIDA MAVJUD IMKONIYATLARNI TO'LIQ ISHGA SOLISH BARCHA SOHALARDA NATIJADORLIKNI TA'MINLAYDI

### Prezident Shavkat Mirziyoyev 2-aprel kuni Buxoro viloyatida amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligi, hududning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish va kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Buxoro viloyati sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmatlar va turizm sohaslarida hech bir hududdan kam bo'lmagan ulkan imkoniyatlarga ega. Viloyatda 2 ta yirik neft-gaz kimyo korxonasi faoliyat yuritmoqda, yana bittasi barpo etilmoqda. Shuningdek, qiymati

5,2 milliard dollar bo'lgan, umumiy quvvati 4,5 gigavattga teng 10 ta yirik quyosh va shamol elektr stansiyasi qurilishi jadal ketmoqda.

2025-yilda hududiy yalpi mahsulot hajmi 7,2 foizga oshib, 86,6 trillion so'mga yetdi, sanoatda 7,1 foiz, qishloq xo'jaligida 4,3 foiz, xizmatlar sohasida 14 foiz o'sish qayd etilgan. Ishsizlik 2024-yilga nisbatan 4,7 foizgacha, kambag'allik darajasi 6 foizgacha pasaygan.

Yig'ilishda Buxoro viloyatini 2026-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari ko'rib chiqildi. Xususan, yalpi hududiy mahsulot hajmini 102,1 trillion so'mga yetkazib, 9,1 foiz o'sishga erishish, sanoat hajmini 9,1 foizga, qishloq xo'jaligini 5,9 foizga, xizmatlar hajmini esa 20,1 foizga o'stirish vazifalari belgilandi. Ishsizlik va kambag'allik

darajasini 2 foizgacha qisqartirish, 381,5 ming nafar aholini daromadli qilish nazarda tutilgan.

Shu maqsadda Buxoro va Kogon shaharlari, shuningdek, Olot, Peshku, Qorako'l, Shofirkon, G'ijduvon, Qorovulbozor tumanlarini ishsizlik va kambag'allikdan xoli hududlarga aylantirish bo'yicha manzilli choralar amalga oshirilishi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari Buxoro uch ming yillik tarixga ega ko'hna zamin ekani, bunday boy madaniy meros va tarixiy obidalar jamlangan shaharlar dunyoda kam uchrashini ta'kidladi. Bu salohiyatni iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadini oshirish va infratuzilmani yaxshilashga xizmat qildirish zarurligi qayd etildi.

Investitsiya va eksport yo'nalishida 2026-yilda 3,3 milliard dollarlik xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish, 1,5 milliard dollarlik eksportni ta'minlash, umumiy qiymati 9,2 milliard dollarlik investitsiya loyihalarini amalga oshirish vazifasi qo'yildi. Sanoatni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Qayd etilganidek, sanoat tarmoqlari kesimida 61 ta yirik loyiha

shakllantirilgan bo'lib, ularning umumiy qiymati 2,2 milliard dollarni tashkil qiladi. Natijada 18 mingta yangi ish o'rni yaratish, aholi jon boshiga sanoat hajmini 25,6 million so'mdan 29,6 million so'mga yetkazish mo'ljallangan.

Xususan, Kogon tumanida yiliga 80 mingta elektr va g'ibrid avtomobil ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish rejalashtirilgan. Loyihaning qiymati 350 million dollarni tashkil etib, 500 ta ish o'rni yaratiladi.

Shuningdek, Buxoro tumanida pirolizni qayta ishlash orqali benzol, toluol, ksilol, pentan, geksan, bitum va kalsiy xlorid ishlab chiqarish bo'yicha 220 million dollarlik loyihani amalga oshirish, Qorovulbozor tumanida 85 million dollarlik loyiha asosida AI-91 va AI-92 benzin ishlab chiqarishni kengaytirish, Kogon tumanida qog'oz va karton mahsulotlari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish ko'zda tutilgan.

Qorovulbozor tumanida yiliga 100 ming tonna mineral o'g'it ishlab chiqarish, Kogon tumanida gipskarton ishlab chiqarishni kengaytirish rejalari ham muhokama qilindi.

Davomi 2-beta



## KOLOGIK MAS'ULIYAT har bir fuqaroning burchi

Bugun ekologiya mavzusi ko'p tilga olinmoqda. Zamonaviy trend emas, hayotimizning deyarli barcha yo'nalishlarida muammoli masalalar, global tahdid o'laroq muhokama markazida turibdi. O'zbekiston ushbu masalaning ahamiyatini chuqur his qilib, ekologik barqarorlikni ta'minlashga katta e'tibor qaratmoqda. Bu bejiz emas, albatta. Zero, ekologiyaga munosabat va yondashuv kelajak oldidagi mas'uliyat bilan chambarchas bog'liq.

Albatta, bu jarayon tabiiy muvozanatni tiklash va Orol dengizi fojiasi oqibatlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Bu esa millionlab insonlar salomatligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligi, suv resurslari, energetika sohalari va iqlim sharoitida ham barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi. Ekologik chora-tadbirlar yashash

uchun xavfsiz va qulay muhit yaratadi: havo tozalani, yashil hududlar ko'payadi, aholi turmush sifati oshadi.

Bu yo'ldagi tashabbuslar, avvalo, mintaqaviy hamkorlikni kuchaytiradi, chunki ekologik muammolar chegara bilmaydi. Tabiatdagi o'zgarishlar bugun Markaziy Osiyo davlatlaridan

birgalikda yechim topishni talab qilmoqda. Shu bilan birga, faol ekologik siyosat mamlakatning xalqaro maydonda mas'uliyati va zamonaviy davlat sifatida nufuzini oshirish, investitsiyalarni jalb qilmoqda hamda "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish uchun imkoniyatlar yarataydi.

Orol dengizining qurishi, tez-tez yuz beradigan chang va qum bo'ronlari, shaharlar havosi ifloslanishi, suv resurslari tanqisligi, yer cho'lanishi, yo'qolib borayotgan bioxilmaxlilik, qishloq xo'jaligida kimyoviy moddalardan ortiqcha foydalanish — bularning barchasi o'n yillar davomida to'planib kelgan muammolar va yechim kompleks yondashuvni talab qiladi.

Davomi 2-beta

## TAMADDUN tafakkuri

Ushbu sonda O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi haqida tahliliy maqolalar, majmuaning asosiy zallaridan biri — "Islomdan avvalgi davr sivilizatsiyalari" bo'limi bilan tanishib, fotosayohat uyushtirishingiz mumkin. Shuningdek, "Bir ekspонат tarixi" ruknida nodir ekspонатlardan biri — miloddan avvalgi birinchi ming yillikka mansub bug'u haykaliga oid ma'lumotlar bilan tanishasiz.

3

## Amir Temur tavalludining 690 yilligi

"ZAFARNOMA"LARNING QO'LYOZMA NUSXALARI VA ULARNI O'RGANISH TARIXI

6

## BUXORO VILOYATIDA MAVJUD IMKONIYATLARNI TO‘LIQ ISHGA SOLISH BARCHA SOHALARDA NATIJADORLIKNI TA‘MINLAYDI

### Boshlanishi 1-betda

Shu bilan birga, 61 ta mavjud sanoat zonasidagi bo‘sh yer maydonlarida joylashtiriladigan yangi ishlab chiqarishlar uchun ustuvor yo‘nalishlar belgilab olindi. Jumladan, Buxoro shahri va Buxoro tumanida oziq-ovqat va mebelchilik, Vobkentda chirm va yengil sanoat, Kogon va Qorovulbozorda neft-kimyo, Shofirkon va Peshkuda farmatsevtika hamda oziq-ovqat, G‘ijduvonda qurilish materiallari yo‘nalishlariga ustuvorlik beriladi.

Qishloq xo‘jaligida zamonaviy yerdan foydalanish texnologiyalari va irrigatsiya tizimlarini joriy etish hisobiga 100 ming gektar yerni o‘zlashtirish va foydalanishga kiritish imkonligi qayd etildi. Bu viloyat iqtisodiyoti va eksport salohiyatini sezilarli oshirishga xizmat qiladi.

Yig‘ilishda viloyatdagi 3 million gektar yaylov yerlaridan samarali foydalanish, chorvachilikni rivojlantirish, ozuqabop ekinlar maydonini kengaytirish bo‘yicha yangi yondashuvlar ham muhokama qilindi. Joriy yilda 59,2 ming gektar maydonga to‘liq ozuqabop ekinlar ekish rejalashtirilgan. Shuningdek, umumiy qiymati 454 milliard so‘m bo‘lgan 82 ta chorvachilik loyihasini amalga oshirish, bu maqsadda chetdan 20 ming bosh naslli qoramol, 30 ming bosh qo‘y va 200 bosh ot olib kelish ko‘zda tutilgan.

Paxtachilik, g‘allachilik va suv tejash yo‘nalishlarida ham aniq vazifalar belgilandi. Xususan, 2026-yilda paxta hosildorligini 52 sentnerga, g‘alla hosildorligini 100 sentnerga yetkazish, 96,8 ming gektarda suv ta‘minoti va meliorativ holatni yaxshilash, 453,5 million kub metr suvni iqtisod qilish, 742 ta qishloq xo‘jaligi texnikasini olib kelish rejalashtirilgan.

Chorvachilikda har bir tumanda 50 bosh naslli qoramolga mo‘ljallangan zamonaviy mini-fermalar tashkil etish taklifi ko‘rib chiqildi. Ushbu dastur doirasida 110 ta loyiha amalga oshirilib, 5,5 ming bosh naslli qoramol olib kelinadi, 3 ming 750 ta yangi ish o‘rni yaratiladi va 51,5 ming tonna qo‘shimcha sut ishlab chiqarish quvvati shakllantiriladi.

Xizmatlar va aholi bandligini ta‘minlash yo‘nalishida mahallalar ixtisoslashuvi asosida 49 ta loyiha amalga oshirilishi, 33 ta savdo va servis ko‘chasi, 2 ta sohil bo‘yi hududi, 4 ta turizm mahallasi va 10 ta yo‘l bo‘yi loyihasi tashkil etilishi belgilandi. Buning uchun jami 12,5 trillion so‘m moliyaviy resurs, jumladan, 7,5 trillion so‘m kichik va o‘rta biznesga yo‘naltiriladi.

Turizm sohasi hozirda asosan Buxoro shahri hisobiga to‘g‘ri kelayotgani, viloyatning boshqa tumanlaridagi imkoniyatlar esa hali to‘liq ishga solinmagani qayd etildi. Jondor, G‘ijduvon, Buxoro, Qorako‘l va Vobkent tumanlarida sohil bo‘yi va yo‘l bo‘yi drayver loyihalarini amalga oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi uchun zamonaviy dam olish muhitini shakllantirish bo‘yicha katta imkoniyatlar borligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Shu munosabat bilan 2026-yilda 3,5 million xorijiy va 5,5 million mahalliy sayyohni jalb qilish, umumiy turistlar sonini 9 millionga yetkazish vazifasi qo‘yildi. Buning uchun 2026-yilda 73 ta yangi joylashtirish vositasi, 15 ta yangi turoperator va turagent ishga tushiriladi.

Buxoro shahrida barpo etilayotgan yangi turizm markazida 5 ta xalqaro brendli mehmonxona tashkil etish, Shofirkon tumanida Xo‘ja Orif, Buxoro tumanida Chor Bakr va Yorjon turizm qishloqlarini rivojlantirish, Buxoro shahrida Mohi Xosa turizm mahallasini shakllantirish nazarda tutilgan. Buxoro tarixiy markazida UNESCO talablariga mos alohida ma‘muriy boshqaruv tizimini joriy qilish muhimligi ta‘kidlandi.

Shuningdek, Kogon shahrida 6 ta tarixiy obyekt negizida turizm shaharchasini tashkil etish taklifi ko‘rib chiqildi.

Kadrlar tayyorlash masalasiga ham alohida e‘tibor qaratildi. Avstriyaning Krems universiteti bilan qo‘shma fakultet ochish, Buxoro turizm va madaniy meros texnikumini mazkur oliygoh boshqaruviga berish rejalashtirilgan. Bunda to‘liq dual ta‘lim asosida mutaxassislar tayyorlash va boshqaruv kadrlarini qayta tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish zarurligi ta‘kidlandi. Ushbu universitet Buxoro shahrida tashkil

etilayotgan tunu kun ko‘chalarni boshqarish bo‘yicha yangi modelni ishlab chiqishga ham ko‘maklashadi.

Yig‘ilishda aholi sonining o‘shishiga mos ravishda uy-joy va infratuzilmani rivojlantirish masalalari ham ko‘rib chiqildi. Xususan, Buxoro tumanidagi Rabotak mahallasi hududida 63 gektar maydonda 10 mingdan ortiq xonadonli zamonaviy uy-joy kompleksi qurish, Buxoro shahrida yangi ma‘muriy markaz tashkil qilish, “Yangi O‘zbekiston” massivi hamda “Yangi O‘zbekiston” bog‘ini barpo etish, Buxoro davlat universitetining yangi kampusini qurish kabi yirik qurilish va urbanizatsiya loyihalarini muhokama qilindi.

Yo‘l va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha ham qator vazifalar belgilandi. Viloyatda uzunligi 33,1 kilometr bo‘lgan 7 ta aylana yo‘l barpo etish, “G‘uzor — Buxoro — Nukus — Beyneu” yo‘lining 78 kilometr va “Samarqand — Buxoro — Turkmanboshi” yo‘lining 71 kilometr qismini rekonstruksiya qilish, A-380 yo‘li bo‘yida 30,8 gektar yer maydonini auktionsga chiqarib, 403 ta servis loyihasini joylashtirish rejalashtirilgan.

Og‘ir toifadagi 3 ta tuman va 36 ta mahallada, shuningdek, “Yangi O‘zbekiston qiyofasidagi” 2 ta tuman va 35 ta mahallada yangi yondashuvlar asosida yo‘l, elektr, suv hamda sug‘orish tarmoqlarini yaxshilash ishlari amalga oshirilishi, bu maqsadlarga jami 593 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirilishi ma‘lum qilindi.

Ijtimoiy vaishlabchiqarishinfratuzilmasini rivojlantirish uchun 2026-yilda jami 4 trillion 484 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirilishi, buning hisobiga maktab, bog‘cha, tibbiyot muassasalari hamda kommunal va transport infratuzilmasi bo‘yicha yuzlab loyihalar amalga oshirilishi qayd etildi.

Prezidentimiz Buxoro viloyatining mavjud imkoniyatlarini to‘liq ishga solish, har bir tashabbusni aniq loyihaga aylantirish, investitsiya, ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi, turizm va infratuzilma sohalarida natijadorlikni ta‘minlash bo‘yicha mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O‘ZA

## BUGUNNING GAPI EKOLOGIK MAS‘ULIYAT har bir fuqaroning burchi



Azamatdin UMATOV,  
Nukus davlat pedagogika  
instituti o‘qituvchisi

### Boshlanishi 1-betda

Keyingi yillarda ekologik masala global muloqot darajasiga olib chiqildi. Davlatimiz rahbari bu muammoli masalani xalqaro minbarlarda ham ko‘tarib, unga jahon hamjamiyati e‘tiborini qaratdi. BMT Bosh Assambleyasi sessiyalarida O‘zbekiston mintaqadagi ekologik muammolar ko‘lamini ochiq bayon qilib, ularning oqibatlarini yumshatish va kelgusida bunday inqirozlarning oldini olish uchun xalqaro hamjamiyatni birlashtirishga chaqirdi.

Bu pozitsiya bir martalik tashabbus emas, tashqi siyosatimizning barqaror yo‘nalishiga aylandi. O‘zbekiston Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi ishida Markaziy Osiyo davlatlarini birlashtirish, qo‘shma ekologik dasturlarni ilgari

surish va suv resurslaridan oqilona foydalanish tarafdori sifatida faol ishtirok etmoqda.

Asosiysi, ekologik tashabbus va takliflar SHHT sammitalaridan tortib, BM Tning Iqlim o‘zgarishlari bo‘yicha konferensiyalarigacha bo‘lgan turli xalqaro anjumanlarda ham muntazam yangrab kelmoqda. Bu esa mamlakatning nafaqat ichki ekologik muammolarini hal qilish, balki global jarayonlarda faol ishtirok etishga qat‘iy va faol intilayotganini ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda yurtimizda hududlarni ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Orol dengizining qurib qolgan tubida chang bo‘ronlarini kamaytirish maqsadida himoya o‘rmonlari, shahar atroflarida “yashil belbog‘”lar barpo etilyapti. Ekologik qonunchilik takomillashtirilib, tabiatdan foydalanish ustidan nazorat kuchaytirilmoqda. Havo sifatini yaxshilash, suvdan oqilona foydalanish bo‘yicha choralar ko‘rilmoqda.



## “YASHIL MAKON” – KELAJAK UCHUN TABIATNI ASRASHDIR

### Munosabat



Mohichehra ESHMIRZAYEVA,  
O‘zbekiston Jurnalistlar  
uyushmasi a‘zosi

Prezidentimiz tashabbusi va bevosita ishtirokida Milliy dendrologiya bog‘i barpo etilishiga start berilishi bu jarayon ramziy emas, balki amalda yangi bosqichga o‘tganini anglatadi. Bu holat yashil hududlarni kengaytirish bilan birga ilmiy asoslangan yondashuv, seleksiya, urug‘chilik va innovasion texnologiyalarni joriy etish orqali tizimli ish yuritilishini ko‘rsatadi.

Tadbirda videokonferensaloqqa orqali 14 ta hududning bir vaqtda ulangani loyiha buning respublika miqyosida bir xil sur‘atda amalga oshirilayotganini anglatadi. Bu, o‘z navbatida,

O‘zbekistonda ekologik barqarorlik va “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. “Yashil makon” umummilliy loyihasi ana shu yo‘nalishdagi eng yirik va uzoq muddatli tashabbuslardan. Unga oddiy ko‘chat ekish aksiyasi sifatida qarash — tabdirming asl mohiyatini tor doirada talqin qilishdek gap. Aslida, ushbu jarayon ortida mamlakatda ekologik muvozanatni tiklash, cho‘llanishga qarshi kurashish, aholi salomatligini muhofaza qilish va shaharozlikda muloqo yangi yondashuvni shakllantirishdek strategik maqsadlar mujassam.

hududlar o‘rtasidagi ekologik tafovutlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Qayd etilganidek, so‘nggi besh yilda har yili 200 million tup ko‘chat ekilayotgani, 2000 gektardan ziyod maydonda 942 ta yashil bog‘ va jamoat parki, 47 ta “Yangi O‘zbekiston bog‘i” tashkil etilgani katta natija. Bu raqamlar ortida ulkan tashkiliy va institutsional faoliyat turibdi. Qolaversa, 256 ming gektar o‘rmon barpo etilib, Orolbo‘yidagi 2 million gektar maydonda himoyaviy yashil qoplamalar barpo etilganini ekologik inqirozga qarshi samarali javob sifatida baholash mumkin.

Ayniqsa, Amasoy, Qorako‘l, Muborak, Karmana va Nukus tumanlarida galofit bog‘larining tashkil etilishi shunchaki ko‘chat ekish emas, balki ilmiy yondashuv asosida cho‘llanishga qarshi kurashning yangi modeli shakllanayotganini namoyon etadi.

Prezidentimiz 2030-yilga qadar yashilik darajasini 30 foizga yetkazish vazifasini qo‘ydi. Bu esa ushbu tashabbusning vaqtinchalik emas, balki uzoq muddatli milliy strategiya ekanini tasdiqlaydi. Misol uchun, Surxondaryoda 10 ming gektar yashil makon, Sirdaryoda 84 kilometrli “yashil devor”, Qoraqalpog‘iston, Navoiy, Buxoro va Xorazmda yuz minglab gektar yangi o‘rmon barpo etilishi rejalashtirilayotgani bu ishlarining aniq manzilli va hisob-kitobga asoslangan holda bajarilayotganidan dalolat.

Eng muhimi, bugun jamiyatda ekologik ong, madaniyat yuksalmoqda. Odamlar tabiatni muhofaza qilish tashabbuslarida faol ishtirok etmoqda.

Bu o‘zgarishlarning yorqin namunasi sifatida “Yashil makon” umummilliy loyihasini keltirish mumkin. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2021-yil noyabrda boshlangan ushbu g‘oya bugun umumxalq harakatiga aylandi.

O‘tgan yili 266 million tupdan ortiq ko‘chat ekilganining o‘zidagina bu yo‘nalishdagi ishlar ko‘lamini yaqqol ifodalaydi. Loyiha faqat ramziy aksiyalar bilan cheklanmasdan, tabiatga munosabatimizni o‘zgartirdi, kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylandi va shu asosda yangi ekologik madaniyatni shakllantirmoqda.

Prezidentimizning 2026-yil 25-martdagi “Yashil makon” umummilliy loyihasi samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni loyihani yanada tizimli va institutsional rivojlantirishga yo‘naltirilgan yangi bosqichni belgilab berdi.

Unga ko‘ra, 2028-yilga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida qo‘shimcha ravishda jami maydoni 100 gektardan kam bo‘lgan botanika va dendrologiya bog‘larini tashkil qilish, 2030-yilgacha O‘zbekistonda umumiy yashilik darajasini 14,2 foizdan 30 foizgacha yetkazish belgilandi.

Prezidentimiz 1-aprel kuni “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ko‘chat ekish tabdirda ishtirok etib, Milliy dendrologiya bog‘ini barpo etishga start berdi.

Umuman, davlatimiz rahbari bir necha bor daraxt ekish aksiyalarida ishtirok etdi. Bu esa ekologik mas‘uliyat davlat yoki alohida tashkilotlar emas, balki har bir fuqaroning burchi ekanidan dalolat.

Mamlakatimiz yetakchisining tashabbusi, jarayondagi ishtiroki amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, tabiatga g‘amxo‘rlilik har bir insonning, avvalo, o‘zidan boshlanishi kerakligini namoyon etadi.

## KUCHLI KASABA UYUSHMALARI – KUCHLI JAMIYAT ASOSI

Mamlakatimizda erkin va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo‘lidagi islohotlar jarayonida ijtimoiy institutlarni qo‘llab-quvvatlashga katta e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, kasaba uyushmalarining erkin va mustaqil faoliyat yuritishi uchun zarur sharoit yaratib berilgan. O‘z navbatida, kasaba uyushmalari ham bu imkoniyatlardan oqilona foydalanib, jamiyatimizdagi islohotlarga munosib hissa qo‘shmoqda.

### Xalqaro konferensiya



Kasaba uyushmalari, eng avvalo, inson manfaati degani. Shu ma‘noda kasaba uyushmalari nashrlari ham doimo inson qadri, mehnat huquqi, ijtimoiy himoya, adolat va hamjihatlik kabi euzu tamoyillarga xizmat qilishi lozim.

Bugun poytaxtimizda O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi muassisligida chop etilayotgan “Ishonch” gazetasi tashkil topganining 35 yilligi munosabati bilan “Kasaba uyushmalari nashrlari transformatsiya sharoitida — konvergentsiya sari yo‘l” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo‘lib o‘tadi. Ishirokchilar matbuot, raqamli texnologiyalar, inson huquqlari, adabiyot, parlament va fuqarolik jamiyatini o‘zaro bog‘laydigan muhim masalalarni muhokama qiladilar.

Anjuman dasturi ham shunga monand. Xalqaro konferensiya qatnashchilari e‘tiboriga “Kasaba uyushmalari nashrlari — ijtimoiy adolatni ta‘minlash va mehnat huquqlarini himoya qilishda medianing o‘rni”, “Kasaba uyushmalari

nashrlari raqamlashuv davrida — transformatsiya, ishonch va rivojlanish strategiyalari” kabi o‘nga yaqin mavzu havola etiladi. Shuningdek, ular kun tartibidagi masalalar bo‘yicha xalqaro, ya‘ni Ozarbayjon, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Tojikiston va Turkiya kabi davlatlarning tajribalari bilan tanishadilar.

Prezidentimiz 2025-yil 17-oktabr kuni O‘zbekiston kasaba uyushmalari faollari bilan uchrashuvda quyidagi fikrlarni bildirdigan edi: “Axborot kommunikatsiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda odamlarga ishonchli ma‘lumotlarni o‘z vaqtida, to‘g‘ri yetkazish juda muhim. Kasaba uyushmalarida buning uchun imkoniyat ham, sharoit ham, salohiyat ham yetarli. Eng katta auditoriyaga ega bo‘lgan kasaba uyushmalari halol va fidoyi mehnatni targ‘ib qilish hamda mehnat munosabatlarida qonuniyligni ta‘minlashga oid axborotlarni jamoatchilikka birinchilardan bo‘lib yetkazib borishi kerak”.

Bu fikrlar kasaba uyushmalari tizimi oldiga juda aniq va dolzarb vazifalarni qo‘yadi. Ya‘ni tashkilot faqat mehnatkashlar haq-huquqini

himoya qiladigan tuzilma emas, u ishonchli so‘z, haqqoniy munosabat va jamoatchilik oldidagi mas‘uliyatni ham zimmasiga olgan tizim.

Bugun “Ishonch” va “Ishonch-Doveriye” nashrlari mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy va ma‘naviy hayotini yoritib kelayotgan, mehnat ahli hayoti, uning huquq va manfaatlariga doir mavzularni muntazam ko‘tarib chiqayotgan nashrlar sifatida e‘tirof etilmoqda. Ular mehnatkash insonning dardi, huquqi, orzu-intilishi va jamiyatdagi o‘rmini ifoda etishga intilib kelayotgan minbaridir.

Mamlakatimizda so‘z va axborot erkinligi, ochiqlik, jamoatchilik bilan muloqot, inson qadri ulug‘lash kabi tamoyillar hayotimizning muhim mezoniga aylanib bormoqda. Ommaviy axborot vositalariga munosabat ham tubdan o‘zgaradi. Bu o‘zgarishlar, tabiiyki, matbuot zimmasiga nafaqat keng imkoniyat, balki yanada katta mas‘uliyat ham yuklaydi.

— Gazetaning ilk soni 1991-yil 21-mart kuni nashr etilgan, shu vaqtdan buyon uning 5 ming 500 dan ortiq soni muhtariylar qo‘liga yetib bordi, — deydi nashr bosh muharriri Husan Ermatov. — Bu raqamlar ortida uzoq yillik mehnat, tahriyot tajribasi, turli avlod jurnalistlarining izlanishlari va eng muhimi, o‘quvchi ishonchi mujassam.

Anjuman nafaqat “Ishonch” gazetasi tahriyati, balki butun kasaba uyushmalari harakati, milliy matbuotimiz va jamoatchilik fikri taraqqiyoti uchun ham alohida ahamiyatga ega voqealidir. Chunki oddiy sana nishonlanayotgani yo‘q. Bugun ishonch, so‘z mas‘uliyati, fidokorona mehnat va jamoatchilik oldidagi burch ulug‘lanayapti.

— Gazeta, mana, bir necha yildirki, ommaboplik borasida mamlakatimizning yetakchi nashrlari safidan joy olib kelmoqda. Uning sahifalarida bosilayotgan eng dolzarb, eng ahamiyatli va rang-barang maqolalar gazetonlarga manzur bo‘lmoqda. Muxtasar aytganda, “Ishonch” ishonch qozonishda davom etmoqda, — deydi yozuvchi Xurshid Do‘stmuhammad.

Tizimda “Kuchli kasaba uyushmalari — kuchli jamiyat asosi” tashabbusi ostida kasaba uyushmalari faoliyatini yanada takomillashtirish va mehnat munosabatlarini rivojlantirish bo‘yicha istiqbolqadri vazifalar belgilab olingan. Bugungi anjumani ana shu maqsadga erishish yo‘lidagi navbatdagi qadam deyish mumkin.

Nodir MAHMUDOV,  
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



# TAMADDUN



## tafakkuri

Markaz o'zining mana shunday tarixiy missiyasini yuksak saviyada ado etishi uchun men ilm-fan va ma'naviyat fidoyilariga — hurmatli olim va tadqiqotchilarga, sho'ir va adiblar, diniy ulamolar, rejissyor va rassomlar, jurnalistlarga, ijodkor yoshlarimizga murojaat qilmoqchiman: Islom sivilizatsiyasi markazida to'plangan har bir eksponat qanday bebaho boylik ekanini sizlar hammadan ko'ra yaxshi tushunasiz. Ularni targ'ib etish, xalqimizga, dunyoga tanitishda ham, avvalo, sizlarga tayanamiz.

Bu tengsiz boylikdan ilhomlanib, sizlar yaratadigan ilmiy tadqiqotlar, badiiy kitob, kino va teatr asarlari, kartina va ko'rsatuvlar: uch ming yillik tarix va madaniyatning so'nmas ovozi bo'lib dunyoga taralsin!

Yangi O'zbekistonni tinchlik, ezgulik, bilim va ma'rifat diyori sifatida olamga tarannum etsin!

Xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun tarbiya va milliy g'urur maktabiga aylansin!

Shavkat MIRZIYOYEV,  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti



## FAXR ETARMAN, ONA XALQIM, KO'K KRA GIMNI TOG' QILIB

Turkiyaning Bursa shahrida mezbonlar bizni "1326-yilda Bursaning fath etilishi" deb nomlangan muzey-panoramaga olib borishgan edi. Muzeyda 3D formatda namoyish etilgan tarixni ko'rib, "Nahotki, "ming asrlar ichra pinhon" tarixga ega O'zbekistonda shu kabi muzey qurish mumkin bo'lmasa?" deya o'ylagan edim.



Sharofiddin TO'LAGANOV,  
jurnalist

Ko'nyoga borganimizda esa Mavlono Jaloliddin Rumiy maqbarasini ziyorat qilganimizdan so'ng Rumiy muzeyiga bordik. To'g'risi, Mavlono Rumiy davriga tushib qolgan dim. Yana o'sha savol: "Nahotki, o'zimizda shu kabi muzey qurish mumkin emas?"

2023-yilda Saudiya Arabistonidagi Hira Cultural District (Hira madaniy maskaniga) sayyohat qildik. Maskan tarix, madaniyat va tafakkuri o'zida aks ettirgan. Madaniy maskanda Qur'on muzeyi, shuningdek, madaniy ko'rgazmalar, shinam qahvaxonalar bor bo'lib, hammasi uyg'unlashgan holda barpo etilgan. Yana o'sha gap: "Bu kabi maskan O'zbekistonda ham qurilsa, biz ham tariximizni, madaniyatimizni yanada qadrlagan bo'lardik" degan o'g'ga bordik.

Kuni kecha Milliy teleradiokompaniyasining bir guruh xodimlari O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida bo'ldi. Maskanga tashrif buyuruvchilarning ko'pligi kishini xursand qiladi. Ayniqsa, xorijliklar, jumladan, qo'shni mamlakatlardan kelgan sayyohlar ko'pligini ko'rib, qalbimizda g'urur uyg'ondi. Aslida, har bir o'zbekistonlik kelib ko'rishi shart bo'lgan maskan bo'libdi. Maqolamiz boshida ta'kidlangan xoriyidagi tarixiy oshiyonlardan aslo kam bo'lmagan, hatto ulardan ustun bo'lgan xalqimizning faxriga aylangan hammamizga murobat bo'lsin.

Markazning asosiy maqsadlaridan biri xalqimizning uch ming yillik tarixi, bunyodkorlik salohiyati, jahon tamadduniga qo'shgan hissasi, buyuk ajdodlarimizning madaniy-ma'rifiy merosini o'rganish va ommalashtirish, yosh avlodni buyuk ajdodlar merosi bilan yaqindan tanishtirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalashdan iborat.

### Minbar

Xorijlik mutaxassislar e'tirof etganidek, Hazrati Imom majmuasi hududidagi 10 gektar maydonda barpo etilgan markaz mahobati, maydoni va qamroviga ko'ra dunyoda islom tarixi, madaniyati va sivilizatsiyalarini o'rganish va targ'ib etishga qaratilgan eng katta kompleksdir. Bunga shaxsan o'zim ham guvoh bo'ldim. Uzunligi 161 metrni, eni esa 118 metrni tashkil etib, uch qavatdan iborat. Markazidagi gumbaz balandligi 65 metrni tashkil etadi. Bino 1,8 gektar maydonda barpo etilib, foydalanish hududi 42 ming kvadrat metrni tashkil etadi. Shuning o'ziyoq markazni Guinness rekordlar kitobiga kiritish uchun asos bo'ladi.

Markaz binosining asosiy darvozasi — Ulug'bek portali muzeyga kirish eshigi hisoblanadi. Ushbu portal Samarqandning Registon maydonidagi Ulug'bek madrasasi portali bezaklariga uyg'un holda loyihalashtirilgan. Bu portal ham bevosita Prezidentimiz tavsiyasi asosida yaratildi.

Majmuani guruh tarkibida, gid hamrohligida aylanib chiqish uchun ikki soat belgilangan. Agar yolg'iz o'zingiz yoki oila a'zolaringiz bilan bormoqchi bo'lsangiz, vaqt cheklanmagan. Aslida, bu kabi ma'naviyat maskanlariga yolg'iz borib ruhiy oziq olishni tavsiya qilgan bo'lardim. Markazni aylanar ekanman, 2009-yil 4-iyun kuni AQSHning o'sha vaqtidagi Prezidenti Barak Obamaning Qohira universitetida so'zlagan nutqi yodimga tushdi. O'shanda AQSH yetakchisi "Tarixga qiziqqan inson sifatida men dunyo sivilizatsiyasi islom oldida qanchalik qardor ekanini ham bilaman. Aynan islom Al-Azhar kabi joylarda asrlar davomida ilm nurini taritib

keldi va Yevropadagi tiklanish va ma'rifatga yo'l ochdi. Musulmon jamiyatlarining ilg'orlik ruhi tufayli algebra tartib-qoidalarini, magnitli kompas va navigatsiya uskunalarini, yozuv mahorati va

to'rt tomondan to'rt asosiy portal orqali kirish mumkin. Portallar va binoning tashqi (fasad) qismidagi ravoqlar Qur'onning ilm, ma'rifat, bag'rikenglik, ota-onaga hurmat mazmunidagi



nashriyotga ega bo'ldik, kasalliklar tarqalishi va ularni davolash yo'llari haqida tushuncha hosil qildik. Islom tamadduni bizga ulug'vor arklar va baland minoralar, vaqt hukmiga bo'ysunmaydigan she'riyat va jozibali musiqa, husni xattotlik va huzur-halovat ila tafakkur qilish imkonlarini berdi". Nutqqa e'tibor bering! Axir AQSHning o'sha vaqtidagi Prezidenti "algebra tartib-qoidalarini" deganda Xorazmiyni, "magnitli kompas" deganda Abu Rayhon Beruniyni, "navigatsiya uskunalarini" deganda Farg'oniyini, "kasalliklar tarqalishi va ularni davolash yo'llari" deganda Ar-Roziy va Ibn Sino kabi ulug' yurtdoshlarimizni nazarda tutmaganimkan? "Ulug'vor arklar va baland minoralar" (Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz), "vaqt hukmiga bo'ysunmaydigan she'riyat" (Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur) va "jozibali musiqa" (Forobiy) deyish bilan Barak Obama yurtimizni nazarda tutgan, deya to'la ishonch bilan aytay olamiz.

Xalqimizning g'ururiga aylangan markaz qurilishi Prezidentimizning doimiy e'tiborida bo'ldi. Uning binosi milliy me'morlik an'analari loyihalashtirilgan. Inshootga o'yatlar va hadislar bilan bezatilgan. Markaz binosining asosiy darvozasi — Ulug'bek portali muzeyga kirish eshigi hisoblanadi. Ushbu portal Samarqandning Registon maydonidagi Ulug'bek madrasasi portali bezaklariga uyg'un holda loyihalashtirilgan. Bu portal ham bevosita Prezidentimiz tavsiyasi asosida yaratildi.

Markazni aylanar ekanman, Samarqandga oid turli davrlar aks etgan eksponatlarni ko'rib, beixtiyor AQSH diplomatlaridan biri Jon Kerrining gaplarini esladim. 2015-yil 3-noyabr kuni AQSHning o'sha vaqtidagi davlat kotibi Jon Kerri Qozog'iston poytaxti Ostonada talabalar bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda BMT aslida Samarqandda tashkil etilgani borasida bayonot bilan chiqqan edi.

"Men tog'lari va dashtlar osha odamlar uchrashgan, turli mintaqalarning mahsulotlari va g'oyalari to'qnashgan joyini o'z ko'zlarim bilan ko'rdim. Men mana bu g'oyat ajoyib hikoyani yana bir bor takrorlashni istardim. XV asr boshida Kastiliya qiroli Genrix III o'z elchisi de Klavixoni Amir Temurning oldiga yuborgan. De Klavixonning uzoq sayohati Konstantinopol, Trapezund orqali, shundan so'ng Shimoliy Erondan o'tib, O'rta Osiyoga, Samarqandga

Samarqandga olib kelingan. Ushbu Qur'on Samarqandda besh asr davomida saqlangan. 1868-yilda rus harbiylari tomonidan Sankt-Peterburgga olib ketilgan. 1923-yilda Turkiston musulmonlari itimosiga ko'ra, Mus'haf Toshkentga qaytarilgan. 1989-yildan 2025-yilga qadar u O'zbekiston musulmonlari idorasida, Mo'yi muborak madrasasida saqlangan. Prezidentimiz tashabbusi bilan ushbu noyob Mus'haf 2025-yil 13-noyabr kuni Islom sivilizatsiyasi markazining Qur'on zaliga ko'chirildi.

"Yangi O'zbekiston — Yangi Rennessans" ekspozitsiyasida mamlakatimizda so'nggi to'qqiz yildagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy jarayonlar, O'zbekistondagi demokratik islohotlar, erishilgan yutuqlar, davlatimizning tashqi va ichki siyosati ustuvor yo'nalishlari, jamiyat va davlat hayotining barcha jabhalarida amalga oshirilgan keng ko'lami ishlar aks etgan. Zalga kirish joyida yangi O'zbekistondagi o'zgarishlar haqidagi rolik namoyish qilinadi. O'zbekiston davlatchiligi ustunlari qismida Qadimgi Xorazm, So'g'd, Baqriya, Turk xoqonligi, Birinchi va Ikkinchi Rennessans davrlarida davlatchiligimiz uchun asos bo'lib xizmat qilgan tamoyillar va yozma manbalar o'r in olgan.

"Davlat, jamiyat, inson" installyatsiyasida yangi O'zbekistonning uch muhim jihati turli vositalar yordamida aks ettirilgan. Shuningdek, ekspozitsiya "Iqtisodiyot — yangi O'zbekiston drayveri", "O'zbekistonning ulkan g'alabali, yoshlar va sport", "Xavfsizlik va tashqi siyosat", "Ta'lim, raqamlashtirish va innovatsiya", "Madaniyat va ma'rifat sohasidagi islohotlar", "Yangi O'zbekistonda ekologiya va atrof-muhit muhofazasi, turizm", "Yangi fuqarolik jamiyati va mahalla", "Yangi O'zbekistonda me'morchilik va ijtimoiy bunyodkorlik" kabi qismlarga ajratilgan.

"Tashqi siyosat" bo'limida O'zbekiston Prezidentining xorijiy safarlari, turli davlat rahbarlari bilan uchrashuvlari haqida videomateriallar va interaktiv ma'lumotlar joylashtirilgan. Bu yerda Prezidentimiz tashabbusi bilan chop etilgan va davlat rahbarlariga tuhfa qilgan adabiyotlar bilan ham tanishish mumkin. Bu ham, o'z navbatida, kitobga, kitobxonlikni rag'batlantirishga qaratilayotgan e'tiborni ko'rsatadi.

Gruziyaga safar qilganimizda Signagi degan shaharchaga olib borishgan edi. Shaharni ko'rib, "Qoyil, qanday qilib tarixiylikni saqlab qoldingiz?" deb so'raganimizda, shahar 2007-yilda renovatsiya (lotincha renovatio — "yangilanish") qilinishini aytishgan edi. Nima uchun Signagini esladim?

Gap shundaki, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazidan chiqib, avtobusga o'tirib, uyga ketishga shoshilish kerak emas. Qadimgi Toshkent bilan tanishish uchun Chorsu bozoriga piyoda yurib kelishni tavsiya qilgan bo'lardim. Juda ajoyib. Eski shahar ko'ngildagidek renovatsiya qilinibdi. Asl ko'rinishi saqlab qolingan holda eski uylar rekonstruksiya, restavratsiya qilinib, sayyohlarning sevimli maskanlaridan biriga aylanibdi.

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazidan "Faxr etarman, ona xalqim, ko'kragimni tog' qilib" chiqdim.

O'zbekim deb keng jahongara ne uchun madh etmayin!

O'zligim bilmogga davrim berdi imkon, o'zbekim.

Men buyuk yurt o'g'lidurman, men bashar farzandiman,

Lekin avval senga bo'lsam sodiq o'g'lon, o'zbekim.



# “ISLOMDAN AVVALGI DAVR SIVILIZATSIYALARI”



## Bir eksponat tarixi

“Islomdan avvalgi davr sivilizatsiyalari” ekspozitsiyasining eng nodir eksponatlaridan biri — miloddan avvalgi birinchi ming yillikka mansub bug‘u haykali. Mazkur muhim arxeologik ashyo hozirgi Navoiy viloyati hududidan topilgan bo‘lib, mintaqada yashagan ko‘chmanchi chorvador qabilalarning yuksak badiiy tafakkuri va o‘ziga xos estetik qarashlari yorqin ifodasidir.

## BUG‘U HAYKALI KUCH-QUDRAT, SERHOSILLIK VA HAYOT BARDAVOMLIGI TIMSOLI

Ushbu bronza haykal hayvonlar obrazi stilizatsiya qilinadigan, uni harakat va ramziy ma‘no bilan ifodalovchi bezak san‘ati — “hayvonot uslubi” (animal style)da yasalgan. Bu yerda Yevrosiyo dashtlarida keng tarqalgan sak va skif madaniyatiga xos.

tutgan. U kuch-qudrat, serhosillik, hayot bardavomligi va tabiat bilan uyg‘unlik ramzi o‘laroq e‘zozlangan. Ayrim tadqiqotchilar esa ushbu obrazni osmon va yer o‘rtasidagi ramziy bog‘lovchi, ruhlar olami bilan aloqador muqaddas jonot sifatida talqin qiladi. Shu bois, bunday haykallar qadimda ko‘pincha qabr yodgorliklarida, marosim majmualari yoki boshqa tabarruk joylarda o‘rnatilgan degan farazlar mavjud. Shu nuqtayi nazardan, mazkur yodgorlik nafaqat arxeologik jihatdan, balki ma‘naviy-madaniy meros sifatida ham katta ahamiyatga ega.

**Asarda bug‘u obrazi ham realistik, ham ramziy-badiiy yo‘sinda talqin etilgan. Nafis qayrilgan uzun va serqirra shoxlari, bug‘uning ixcham tanasi va harakatga shay holatda tasvirlanishi kompozitsiyaga kuchli dinamika bag‘ishlagan. Shakllar umumlashtirilgani, chiziqlar aniq va ifodali berilgan san‘atkorning yuksak mahorati va tasviriy tafakkuridan darak.**

Bunday haykallar odatda diniy marosimlar, e‘tiqodiy tasavvurlar va urug‘-qabilaviy ramzlar bilan bog‘liq bo‘lgan inobatga olsak, eksponat bronza va temir davri Vatanimiz sarhadida istiqomat qilgan xalqlar, xususan, skif-sak madaniy an‘analari, diniy tasavvurlar hamda ko‘chmanchi jamiyatlar hayoti haqida qimmatli ma‘lumot beradi. Shu ma‘noda, ushbu nodir topilma ajdodlarimizning boy madaniy merosi va yuksak badiiy didi haqida guvohlik beradigan bebaho yodgorlik hamdir.

Qadimgi ko‘chmanchi xalqlar dunyoqarashida bug‘u timsoli alohida o‘rin

Asliddin KARIMQULOV,  
jurnalist



Ozbarjonning O‘sh, O‘zgan, Taraz, Marv, Xo‘jand, Gabala singari shaharlari ham ushbu xaritag kirtilgan.

Mazkur zalda paxta installatsiyasi, Kushon tangalari, Yer yuzidagi eng qadimiy shaxmat donalari, to‘qimachilik namunalari, baqtriya tuyasi, so‘g‘d bozori videoloyihasi va boshqalarni ko‘rish mumkin.

Yurtimiz hududidagi Dalvarzintepadan topilgan shaxmat donalarini dunyodagi eng qadimgi ana shunday topilmalar deyish mumkin. Bu Hindistondan topilgan shaxmat donalaridan ham 4 asr oldin yaratilgani aniqlangan.

### QADIMGI SO‘G‘D

O‘zbekiston nafaqat shaxmat, balki musiqa vatani hamdir. Samarqand hududidan, Urgutning Mo‘minobod qishlog‘idan topilgan 3300 yillik nay ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. Bu yerda yurtimiz hududida yaratilgan bir qancha cholg‘u asboblari bilan tanishish, ularning ovozi ham eshitib ko‘rish mumkin.

Qadimgi Afrosiyob yodgorligidan topilgan devoriy suratlar ham vatanimizda xalqaro munosabatlar, savdo-sotiq, tasviriy va amaliy san‘at qanchalik rivojlanganini ko‘rsatadi.

### QADIMGI FARG‘ONA

Farg‘onaning qadimiy uchar otlari haqidagi ma‘lumotlar qadimgi Xitoy manbalarida tilga olingan. Afsonalarga ko‘ra, bu otlar baland tog‘ etaklarida yashagan. Otlar Dovon mamlakatining or-nomusi timsoli bo‘lgan. Xitoy imperatori ham bu otlarni qo‘lga kiritish uchun bir necha bor Qadimgi Farg‘ona — Dovonga o‘z elchilarini yo‘llagan. Ammo farg‘onaliklar o‘z otlarini hech kimga bermagan. Bu otlar tasvirini so‘g‘d liboslari, idish-tovoqlari, tasviriy san‘at namunalari ham ko‘rishimiz mumkin.

Zaldan Andijon viloyati hududidan topilgan Qadimgi Dalvarzin shahri maketi, kulollik namunalari o‘rin olgan.

### QADIMGI CHOCH

Toshkent vohasidan uncha uzoq bo‘lmagan Axsikent yodgorligi hududida bundan ikki ming yil muqaddam metallurgiya sanoati taraqqiyot pallasida edi. Axsikentda qazib olingan po‘lat Yaqin Sharqqa olib borilgan va dunyoga mashhur damashq qilichlarini tayyorlashda ishlatilgan.

Toshkent vohasida ham qurolsozlik, qilich va qalqonlar, kamon va o‘q-yoylar yasash qadimdan rivojlangan. Toshkent kamonlari hatto Firdavsiyning “Shohnomasi”da ham tilga olingan.

Islomdan oldingi davr ekspozitsiyasi yakunidan “Markaziy Osiyodagi qadimgi sivilizatsiyalar” roligi o‘rin olgan.

### “VAQT DEVORI”

“Vaqt devori” jami 250 metri tashkil qiladi. Bu devorda xalqimizning kamida 3000-yillik davlatchiligi tarixi barelyef, miniatyura va mahobatli rangtasvir asarlar ko‘rinishida aks ettiriladi. Shuningdek ushbu devor bo‘ylab turli davrlarga oid eksponatlar, numizmatika namunalari, xaritalar, videoroliklar, interaktiv o‘yinlar joylashtirilgan.

Islomdan oldingi davr “Vaqt devori”da qadimgi madaniyat ildizlari, Baqtriya, Xorazm, So‘g‘d, Choch va Farg‘ona, qadimgi savdo yo‘llari aks etgan barelyef suratlarini ko‘rishimiz mumkin.

Ekspozitsiya yurtimizdagi ilk madaniy yodgorliklar — Navoiy viloyatidagi Sarmishsoy qoyatosh suratlarini bilan ochiladi. Ular 8-10 ming yillik tarixga ega bo‘lib, bu yerda 12 mingtagacha petroglifni ko‘ramiz.

Vaqt devorida islomdan avvalgi davrdagi ajdodlarimiz hayot tarzi, kundalik mashg‘ulotlari maxsus videolavhalar yordamida ko‘rsatib berilgan. Yurtimiz hududidan ilk davlatchilik shakllangan davrlardagi arxitektura, hunarmandlik, tasviriy san‘at, yozuv namunalari “Vaqt devori”da yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Shu bilan birga, diniy e‘tiqod, xalqimizning ozodlik uchun kurashlari ham shu devorda

### QADIMGI BAQTRIYA

Mintaqamizdagi diniy bag‘rikenglik markazlaridan biri hisoblangan zaminda 400-yil hukmronlik qilgan Kushonlar davlatida qadimgi dunyo aholisining 20 foizi istiqomat qilgan.

Kushon davlati hududida induizm, buddizm, zardushtiylik ibodatxonalari mavjud bo‘lgan. Ikki ming yil avval bu yerda diniy bag‘rikenglik hukm surgan.

Qadimgi Kushon tangalarida ham turli din ma‘budlarining shakllari tushirilgan. Uzoq yillar dunyo olimlari Baqtriya hududidagi Oks Aleksandriyasining aniq o‘mini topolmay keldi. Prezidentimiz tashabbusi bilan marhum akademik E. Rtveladze boshchiligidagi ilmiy guruh 2019-yil avgust oyida o‘tkazilgan III xalqaro kongressda Oks Aleksandriyasi Kampirtepa yodgorligi hududida ekanini isbotlab berdi.

Bu zalda qadimgi Baqtriya xazinasi, baqtriy yozuv namunasi, shu hududidan topilgan haykallar, budda va bodxisatva yodgorliklari, Kushon gilamini ko‘rishimiz mumkin.

### QADIMGI XORAZM

Dunyodagi eng qadimiy sivilizatsiyalardan biri, zardushtiylik dinining vatani, o‘zbek davlatchiligining ilk o‘chog‘i sanaladi. Mashhur olim Sergey Tolstov Xorazmni “Ming shahar o‘lkasi” deb atagan. Yurtimizdagi ilk yozuv namunalari ham Xorazmdan topilgan.

O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida qal‘alarning eng muhimlari aks ettirilgan. Masalan, maketi joylashtirilgan Qo‘yqirilganqal‘a eng qadimgi qal‘alardan biri hisoblanadi. II-VI asrlarga mansub bu yodgorlik ham aholi manzilgohi, ham rasadxona vazifasini bajargan.

Zalda “Avesto” kitobidan sahifalar, qadimgi Xorazm shaharlari maketlari, zardushtiylik foydalangan ossuariylar (suyak saqlanadigan idishlar)ni ko‘ramiz.

### BUYUK IPAK YO‘LI

O‘zbekiston tarixida ushbu yo‘l katta o‘rin tutadi. Eramizdan avvalgi II asrda boshlangan bu ipak yo‘li 18 asr davomida G‘arb bilan Sharqni bog‘lab turgan. Bu yo‘l O‘zbekistonning katta shaharlaridan o‘tgan. Interaktiv xaritada ushbu shaharlar haqida ma‘lumotlar berilgan. Prezidentimizning tashabbusi bilan Markaziy Osiyo va

### QADIMGI BAQTRIYA

Mintaqamizdagi diniy bag‘rikenglik markazlaridan biri hisoblangan zaminda 400-yil hukmronlik qilgan Kushonlar davlatida qadimgi dunyo aholisining 20 foizi istiqomat qilgan.

Kushon davlati hududida induizm, buddizm, zardushtiylik ibodatxonalari mavjud bo‘lgan. Ikki ming yil avval bu yerda diniy bag‘rikenglik hukm surgan.

Qadimgi Kushon tangalarida ham turli din ma‘budlarining shakllari tushirilgan. Uzoq yillar dunyo olimlari Baqtriya hududidagi Oks Aleksandriyasining aniq o‘mini topolmay keldi. Prezidentimiz tashabbusi bilan marhum akademik E. Rtveladze boshchiligidagi ilmiy guruh 2019-yil avgust oyida o‘tkazilgan III xalqaro kongressda Oks Aleksandriyasi Kampirtepa yodgorligi hududida ekanini isbotlab berdi.

Bu zalda qadimgi Baqtriya xazinasi, baqtriy yozuv namunasi, shu hududidan topilgan haykallar, budda va bodxisatva yodgorliklari, Kushon gilamini ko‘rishimiz mumkin.

## Fotosayohat

# MILLIY O‘ZLIKNING ANTIK ILDIZLARI BO‘YLAB

“Islomdan avvalgi davr sivilizatsiyalari” ekspozitsiyasining kirish qismi qoyatosh imitatsiyasi bilan boshlanadi. Ushbu badiiy-me‘moriy yechim ibtidoiy jamoa davriga xos tabiiy muhitni aks ettirishga qaratilgan. Ichki qismida qadimgi turar joy manzilgohi sifatida g‘or muhiti rekonstruksiya qilingan.

Mazkur g‘or tasviri ilk paleolit va mezolit davrlarida odamlar yashagan tabiiy boshpanalarni ifodalaydi. Arxeologik tadqiqotlardan ma‘lumki, bunday manzilgohlar ibtidoiy jamoalar uchun doimiy yoki mavsumiy turar joy vazifasini o‘tagan. G‘orlarda terini oshlash, tosh va suyakdan mehnat qurollari hamda turli buyumlar tayyorlash, oziq-ovqatni qayta ishlash kabi xo‘jalik ishlari bajarilgan. Bunday rekonstruksiya ekspozitsiya ziyoratchilariga insoniyat sivilizatsiyasining ilk bosqichlari, yashash tarzi va mehnat madaniyati haqida yaxlit ilmiy tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Biz ko‘pincha mintaqamiz tarixini muayyan nuqtadan boshlab o‘rganishga odatlanganmiz, biroq mazkur zal o‘sha buyuk uyg‘onish davriga qadar ham bu zaminda ko‘hna tamaddun ildiz otganini ko‘rsatadi. Ekspozitsiyani diqqat bilan aylansangiz, eng avvalo, ajdodlarimizning olamni idrok etish mahoratiga qoyil qolasiz.

Qadimgi Baqtriya, So‘g‘d, Xorazm tuprog‘idan topilgan osori-atiqalar ma‘naviy merosimizning ilk qatlamlari sifatida o‘sha davrdagi yuksak estetik diddan dalolat beradi. Bu artefaktlarga termilob, ilgari odamlarning tabiat bilan uyg‘unligi, koinot sirlariga intilishi va yuksak axloqiy mezonlarni shakllantirish yo‘lidagi urinishlarini his qilish mumkin. Shisha vitrinalar ortidagi har bir obyekt, u kushonlar davriga mansub mahobatli haykallar bo‘ladimi yoki Mug‘tog‘dagi milodiy 710-yilga oid ilk nikoh shartnomasimi — barchasi yagona haqiqatni tasdiqlaydi: bu zamin azaldan madaniyatlar chorrahasi, turli e‘tiqod va qarashlar makoni bo‘lgan.

Ekspozitsiyadagi arxeologik topilmalar o‘zligimizning eng chuqur ildizlariga qaytishga undaydi. Zalda tasavvur va ilmiy aniqlik shunday uyg‘unlashganki, kishi o‘zini go‘yo vaqt mashinasida yurgandek his qiladi. Islom sivilizatsiyasi davrida yuz bergan ulkan intellektual sakrash aynan mana shu qadimiy va mustahkam paydov ustiga qurilganini anglash esa, tabiiyki, milliy g‘urur tuyg‘usini yanada yuksaltiradi.

QR-kod orqali fotosayohat qiling!



www.yuz.uz | yuz.uznews | yuz\_official | yuz.uz\_news | yuz.uz\_news

**Tayanch nuqta**

# GENDER TENGLIK VA IQTISODIYOT:

## xotin-qizlar ta'limi nima uchun bu qadar muhim?



Ijtimoiy tarmoqlar — muhokama maydoni.

Har kim muayyan masala, hodisa-voqea yuzasidan to'g'rimi-noto'g'ri, obyektiv yoki subjektiv, ishqilib o'z munosabati, fikrini bildirishi mumkin. Bu maydonda oxirgi paytlarda eng ko'p bahsga sabab bo'layotgan, mavzuning asl mohiyatini bilib-bilmay, tushunib-tushunmay, har qalay har kim axloq saviyasiga yarasha fikrlarini, aniqrog'i, munosabatini bildirayotgan, ko'pincha tortishayotgan masalalardan biri — gender tenglik. Uni feminizm deb ataysizmi, ayollar huquqi yoki boshqa biror ilmiy termin ko'laysizmi — unchalik ahamiyatli emas, muhimi, bir qoziq atrofida ikki tarafga qarab aylanadigan qarashlar.



Asliddin ABDURAZZOQOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

emas bu gap. Biz omma, ko'pchilik haqida mulohaza yuritaymiz. Achinarlisi, a'loch qizlar esa ba'zan bugun vaynerlarimiz eng zo'r hazil deb xalqqa "yedirayotgani" kabi o'sha "ikkichi" sindfoshining paypog'ini yuvish bilan qolib ketadi. Taajjub, eng katta fojialarimizdan biri eng zo'r hazilimiz bo'lib qolgan.

Bundan kelib chiqadiki, ayollarning jamiyatdagi eng muhim o'rinlar uchun raqobatga kirishmasligi ham umumiy rivojlanishga g'ov bo'ladigan, uning asosiy sharti bo'lgan sog'lom raqobat tamoyillari ildiziga bolta uradigan bosh omillardan. Nima ham deymiz, yaxshi o'qigan qizlar "o'qib shahar olib beramidi?", yaxshi o'qimaydigan yigitlar esa "shahar olib" yotibdi — shunday ekan, sidqidildan o'qish uchun hech qanday talab ham, ehtiyoj ham yo'q go'yo...

Bu muammolar, shak-shubhasiz, kecha yoki bugun paydo bo'lib qolgan yo'q. Ma'rifatparvar Fitratning "Oila" asaridagi mulohazalarga diqqat qaratsak, masalning mohiyatiga yetishimiz osonroq kechadi. Bu, o'z navbatida, fikr yuritayotganimiz — ayollar huquqi, xususan, ta'limi borasida qilinayotgan ishlarning boisini

keyin bildikki, ayolning tushunish darajasi erkaknikidan kam emasdir". Va sizlarning payg'ambaringiz ham buyurdiki, "Ilm olish har bir musulmon erkak va ayolga farzdir", ayollarning tarbiyati foydali bo'lib, "Kimki yaxshilik keltirsa, unga o'n barobar...". oyatining hukmiga ko'ra, yaxshi amallarga ega bo'lishlik vojibdir. Negaki yaxshi amallar yaxshi axloqsiz mumkin bo'lmaydi.

Yaxshi axloqqa keyinroq ega bo'lishlik ham "vojib bo'lgan amallarning birinchilaridandir". Biror kimsa ham tarbiyasiz yaxshi axloq sohibi bo'lmaydi. Bizning birinchi tarbiyamiz onalarimiz urf-odatidir, ularning o'zlar tarbiya ko'rmagan bo'lsalar, biz ham ularning yomon tarbiyasidan hamisha yomon axloq egasi bo'lamiz. Shu sababli donolar bizning olami insoniyat doirasidan tashqarida deb biladilar. Yurtning baxtsizligi, zaminning saodsizlig'idirki, ayollar u yerni ta'lim va tarbiya sharaftidan mahrum qiladilar.

Mudarris: Ajab sodda odam ekansiz. Behuda ishlarning tashvishini qilyapsiz. Ayollarning yaratilishidagi hikmat "tavolud va tanosul" (tug'ish va nasl qoldirish)dir. Men avvaldan arz qildimki, bizda tahsil 37 yoshda tamom bo'ladi. Bu sur'atda agar ayollarni ham tahsil ettirsa, uni tugatgandan so'ng yoshi 37 ga borganida hech bir erkak ularga rag'bat qilmaydi va u vaqtda "silsilasi tanosul" (ketma-ket nasl qoldirish) uzilgan bo'ladi.

Farangi: Ammo bu gapingiz, ya'ni agar ayollarni tahsil ettirsa, tanosul silsilasi uziladi, deganingiz to'g'ri. Dalil shuki, agar sizning ushbu so'zingiz to'g'ri bo'lganda, kamil aql egasi

umumdorligini oshiradi. Bilimli mutaxassis yangi texnologiyani tezroq o'zlashtiradi, murakkab jarayonlarni samaraliroq boshqaradi, yangilik yaratish salohiyatiga ega bo'ladi. Jamiyada shunday insonlar qancha ko'p bo'lsa, iqtisodiyotning ishlab chiqarish quvvati shunga munosib ravishda ortadi. Endi tasavvur qilaylik: aholining qariyb yarmi bo'lgan ayollar ta'lim imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanmasa, bu qanday oqibatga olib keladi? Bu — ritorik savol. Ya'ni javobi o'zida.

Mehnat bozori ko'rsatkichlari ham shu mantiqiy tasdiqlaydi. Oxirgi o'n



yo'lga nazar tashlasak, ta'lim siyosati, xususan, qizlar ta'limining kengayishi iqtisodiy modernizatsiya jarayonlari bilan yonma-yon kechganini ko'ramiz. Bu hodisa tasodifiy emas. Inson kapitaliga tayanadigan iqtisodiyotlar o'z imkoniyatlarini kengaytirish uchun jamiyatning barcha qatlamlarini bilim maydoniga jalb qilishga intiladi. Masalan, Janubiy Koreya bugun yuqori texnologiyalar va sanoat ishlab chiqarishi bilan tanilgan davlatlardan. O'tgan asrning oltin yillarida esa bu mamlakat qashshoq agrar iqtisodiyotga ega edi. O'sha davrda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad 100 dollardan ham kam bo'lgan. Keyingi o'n yilliklarda ta'lim tizimi keskin kengaytirilib, jumladan, qizlarning maktab va universitetlarga qamrovi yuqori sur'atda oshdi. Ma'lumotlarga ko'ra, bugun Janubiy Koreyada oliy ta'lim olayotgan yoshlar orasida ayollar ulushi e'lon qilingan yuqori. E'tiborlisi, mamlakat iqtisodiyoti misli ko'rilgan sur'atda o'sdi: aholi jon boshiga daromad bugun 30 ming dollardan ortiq.

Shunga o'xshash jarayonlarni Skandinaviya mamlakatlari tajribasida ham ko'rish mumkin. Finlyandiya, Norvegiya va Shvetsiya singari davlatlar eng innovatsion iqtisodiyotlar qatoriga kiradi. Bu mamlakatlarda ayollar ta'lim darajasi juda yuqori bo'lib, universitet bitiruvchilari orasida ayollar ulushi ko'pincha ellik besh foizdan ziyodni tashkil etadi. AQSH ham yorqin misol. So'nggi o'n yilliklarda oliy ta'lim muassasalarini tamomlayotgan yoshlar orasida ayollar ulushi ellik foizdan ancha yuqori. Tibbiyot, biologiya, iqtisodiyot, ijtimoiy fanlar, hatto texnologiya sohalarida ham ayollar faoliyati kengayib bormoqda. Ko'plab tadqiqotlar ilmiy kashfiyotlar, innovatsion startaplar va texnologik g'oyalarga paydo bo'lishida ana shu keng bilimli qatlam muhim rol o'ynayapti.

Boshqa tomondan, ayollar ta'limi va bandligi past bo'lgan jamiyatlar iqtisodiy imkoniyatlarining sezilarli qismini yo'qotishi ham kuzatiladi. Jahon banki va xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tahlillari ko'rsatadiki, ayrim mintaqalarda ayollar mehnat bozoriga ishtiroki erkaklar ko'rsatkichidan deyarli ikki barobar past. Bunday vaziyatda iqtisodiyot ishchi kuchining katta qismini foydalanmaydi.

Shu o'rinda yana bir savol tug'iladi: jamiyatda ayollar ta'limining kengayishi faqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradimi yoki uning boshqa ta'sirlari ham mavjudmi? Buni qarag'ni, mazkur jarayon ancha chuqur ijtimoiy natijalarni ham yuzaga keltirar ekan. Demografik tadqiqotlar fikrimizni aniq raqamlar bilan tasdiqlaydi. Jahon banki va BMT ma'lumotlariga ko'ra, ayollarning o'rta ta'lim muddati oshgan sari tug'ulish darajasi ham barqarorlashadi, bolalar o'limi kamayadi, oilaviy sog'liq ko'rsatkichi yaxshilanadi. Masalan, boshlang'ich ta'lim olgan onalarning farzandlari orasida bolalar o'limi darajasi qariyb ikki barobar past ekanini qayd etiladi.

Ilmiy ayollarning muhim xususiyati — farzandlari ta'limiga ko'proq e'tibor qaratishi. Ko'plab demografik va pedagogik tadqiqotlar ko'rsatadiki, onaning ta'lim darajasi oshishi bilan bolalarning maktabga qatnash darajasi ham ortadi. Ya'ni o'z-o'zidan bilimli ayol yovog'ini yetish uchun mustahkam zamin paydo bo'ladi. Shuningdek, iqtisodiy tahlillarda yana bir qiziqarli tendensiya qayd etiladi. Ayollar daromadi ko'pincha oilaning umumiy farovonligiga yo'naltiriladi. Ayollar ishlab topgan daromadning katta qismini bolalar ta'limi, sog'liqni saqlash va turmush sharoitini yaxshilashga sarflar ekan. Shu orqali ijtimoiy kapital mustahkamlanib, jamiyatda sog'lom, bilimli va faol ayol shakllanish ehtimoli ortadi.

Jahon banki ma'lumotlarida esa ko'plab mamlakatlarda kichik va o'rta biznes subyektlarining sezilarli qismi ayollar tomonidan boshqarilishi qayd etilgan. Mazkur jarayon iqtisodiyotda yangi ish o'rinlari yaratilishiga, xizmatlarga va ishlab chiqarish sohalariga kengayishga bevosita aloqador. Alaloqibat ayollar ta'limi jamiyat taraqqiyotiga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan, mehnat bozorida ishchi kuchi salohiyati kengayadi, ikkinchi tomondan, kelajak avlodning bilim va malaka darajasi oshadi. Shu bois, zamonaviy iqtisodiy siyosatda ayollar ta'limi kengaytirish masalasi tobora ko'proq strategik ahamiyatga ega. Ta'lim tizimining o'zgarishi, qizlarning oliy ta'limga kirish imkoniyatlarini, ilmiy faoliyatda ayollar ulushining ortishi — bularning barchasi inson kapitalini kengaytirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, masalaning asl mohiyati haqida mushohada yuritir ekanmiz, ayollar ta'limi atrofida bahslar ko'pincha ma'lum bir imtiyoz atrofida tor savol doirasida kechsa-da, uning ortida qanchalik keng mavzular mundariyasi turganiga amin bo'ldik. Demak, ushbu jarayon asta-sekin ijtimoiy tasavvurlarni ham o'zgartiradi: insonning qadri uning kelib chiqishi yoki jinsi bilan emas, erag'lan bilim va bajarayotgan ishining samarasiga qarab baholanganidagina olg'a siljish bo'ladi. Shu sabab ayollar ta'limi masalasi alohida guruh manfaatiga daxldor masala bo'lmay, jamiyatning umumiy rivojlanish yo'nalishini belgilaydigan asosiy omillardan biridir.



teranroq tushunishimizga turki beradi. U jamiyatdagi ayrim illat hamda kamchiliklarga achchiq va ochiq baho berib, baxtsizlik va qo'liqlik asosiy sabablaridan biri o'laroq ayollarning jamiyat hayotidagi o'rni benihoya past ekanini ta'kidlar ekan, jumladan, bunday deydi: "Mamlakatimizdagi xotinlar har daqiqada qanchadan qancha ta'hir va jafolarga duchor bo'lib yashamoqdadalar. Biz, turkistonliklar o'z xotinlarimizni odamiyat doirasidan tashqarisida deb o'ylaymiz va u bechoralarga odamga qilgandek muomala qilmaymiz..."

Ular haqiqatdan bashariyat fazilatlarining aksaridan mahrum qolganlar. Saodat mayli va taraqqiy orzusi ularning qalbidan tamoman chiqqan. Shijoat va jasorat batamom yo'q bo'lib, tabiatlaridan tanballik va zai'lik joy olgan. Izzat talabi, sharaf hijfi, huquqlarini himoya etish fikrlarini tushuntirib berganda ham tushumaydilar. Muhokima, ta'limni tafakkurni batamom tark qilib, bir mashinaga o'xshab ertalarining ishoratiga tobe bo'lib qolganlar. Xulosa qilib aytganda, baxtsizligimiz va qo'liqlikimizning eng muhim sabablari ham shundadir".

To'g'ri, bir qarashda bugungi ahvolutimiz ancha farqli, yaxshi tomonga o'zgaragan, albatta! Bunga na e'tiroz, na shubhamiz bor. Aytmoqchi bo'lganimiz, bugungi holatimiz ayni shunday ma'rifatparvarlarning bir tomonlama stereotiplarga qarshi ayovsiz va qat'iy kurashi samarasidir. Hozir ayol-qizlarning qulay ta'lim olishi yo'lidagi sa'y-harakatlar ham kelgusida o'z mevasini berishiga amin bo'lishimiz kerak. Ayollar ta'limi masalasida so'z ketganda, ayniqsa, ayol faqat uyda o'tirishi kerak deb fikrlovchi va bu tor dunyoqarashini e'tiqod ortiga yashirishga urindigan ayrim kimsalar uchun esa Fitrat domlaning "Munozara" asaridagi bir mudarris va farangi o'rtasidagi bahsdan parcha keltirishni joiz deb topdik:

"Farangi: Endi aytg'chi, Buxoroda ayollar ham tahsil o'ldalarmi yoki yo'q? Mudarris: Yo'q, ayollar tahsil ko'rmaydilar. Farangi: Nega ularni tahsildan bebahra qoldirganlar? Ayol aqli ta'lim va tarbiya xusida erkaknikidan kamroq bo'lmasa kerak. Bizning hakimlardan biri aytadiki: "Biz Amerika va Fransiya ayollarining ixtirolari mushohadasini

bo'lgan, olarning nizomini sizdan yaxshiroq bilgan payg'ambaringiz "Ilm olish har bir musulmon erkak va ayolga farzdir", demas edi. Ammo sizning "bizdagi tahsil muddati uzundur", deganingiz bir tash usulning nodurustlig'idirki, bu tahsilni nam qilishlarni keltirib chiqarmaydi. Sizning bu tahsil usulining mushkul va nuqsonli ekan, boshqa usulni ixtiyor qilingiz".

Bundan tashqari, muallif farangi tilidan gapirib, ayollarni o'qitmaslik dinning asl haqiqatidan farsahlarcha uzoqlashish, tamaddun taraqqiyoti tezligidan undan-da olis ortda qolish, "begonalarning shuhrati, ilmu ma'rifatingizning no'orasi shovqini shariat deb ko'tarib yurish, jaholat va falokat po'yasiga yetib qolish" ekanidan qattiq ogohlantiradi. Ayon bo'ladi, qizlarni o'qitish masalasi, shuningdek, ta'limni isloh qilish vazifasi ham har bir davr uchun dolzarb bo'lib kelgan. Fitrat kabi allomalar ilgari sargan g'oyalarga chuqur ma'naviy buloqlardan suv ichgan hamda mazkur sohadagi keyingi, ayniqsa, hozirgi qadamma-qadamm takomillashayotgan ta'lim tizimini zamonga mos ravishda modernizatsiya qilish va unda xotin-qizlarga alohida rag'bat mexanizmlarini joriy etish jarayonlari uning mantiqiy davomidir.

Bugun masala tarixiy bahs yoki ma'rifiy chaqiriq darajasidan allaqachon chiqib ketgan. Zamonaviy iqtisodiyot inson kapitali tushunchasi atrofida tarkib topdi. Davlatlar qudrati yer osti boyliklari yoki geografik qulaylik bilan o'lchamaydigan, taraqqiyot mezonini jamiyat a'zolarining bilim darajasi, malakasi, tafakkuri kengligi, ilmiy va texnologik salohiyati bilan belgilanayotgan bir davrda ayollar ta'limi masalasi



YILLIKDA KO'PLAB RIVOJLANGAN DAVLATLARDA AYOLLAR BANDLIGI KESKIN OSHGAN.

Masalan, o'tgan asrning oltin yillarida iqtisodiyot hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo mamlakatlarda ayollarning mehnat bozoriga ishtiroki qariyb qirq foiz atrofida edi. Bugun bu ko'rsatkich oltin yillikdan yanada qisqarsa, rivojlangan davlatlar iqtisodiyoti qo'shimcha ravishda o'n foizdan ortiq kengayishi mumkin. Erkaklar va ayollar bandligi to'liq tenglashgan taqdirda iqtisodiyot hajmi o'rta o'rta o'rta ikki foizga yaqin ortishi ehtimoli mavjud. Shu nuqtayi nazardan, ayollar ta'limiga e'tibor mehnat resurslari tarkibini ham tubdan o'zgartiradi. Avval faqat erkaklar ustunlik qilgan ko'plab sohalarida ayollar ham faol ishtirok etib boshlaydi. Ilmiy tadqiqotlar, tibbiyot, muhandislik, boshqaruv, texnologiya kabi murakkab yo'nalishlarda ayollarning ulushi ortib borishi esa iqtisodiyot faoliyat ko'lamida aks etadi. Masalan, ayrim rivojlangan mamlakatlarda oliy ta'lim olgan yoshlar orasida ayollar ulushi ellik foizdan oshib ketgan. Tibbiyot, biologiya, ta'lim, ijtimoiy fanlar kabi sohalarida bu ko'rsatkich ayrim joylarda oltin yillikdan yanada oshib ketgan.

Tadqiqotchilar yana bir muhim omilni qayd etadi. Mehnat bozorida ayollar ulushi ortgan sari raqobat muhiti ham sog'lomlashadi. Raqobat kuchayishining esa, o'z o'zida, iqtisodiy samaradorlikka ijroviy ta'siri bor. Buni tushunish uchun odiy bir manzarani tasavvur qilish kifoya. Agar jamiyat muhim lavozimlar, ilmiy izlanishlar yoki iqtisodiy tashabbuslar doirasini faqat aholining bir qismi bilan cheklab qo'ysa, bu maydonda raqobat ham tor doirada kechadi. Iste'dodlar soni kamayadi, tanlov imkoniyati qisqaradi. Oqibatda eng yaxshi natijaga olib keladigan g'oya yoki yondashuv yuzaga chiqmay qolishi ehtimoli ortadi.

Tarixiy tajribalar masalaga yanada aniqroq tasavvur beradi. Turli mamlakatlarda taraqqiyot

**USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!**

ham odiy ijtimoiy tenglik yoki ma'naviy adolat mavzusi doirasida qolmasligi tabiiy.

Bu xususida bir muhim jiharga e'tibor qaratish lozim. Ta'lim darajasi oshishi bilan ayollar mehnat bozorida faolroq qatnasha boshlaydi. Ayni jarayon iqtisodiyot uchun odiy statistik ko'rsatkich emas, balki tizimli o'zgarishdir. Sababi mehnat bozori qanchalik katta bo'lsa, iqtisodiyot faoliyat ham shunchalik kengayadi. Ishlab chiqarish hajmi ortadi, xizmat ko'rsatish sohalarini, yangi kasb va yo'nalishlar paydo bo'ladi.

Xalqaro iqtisodiy tadqiqotlar aynan shu jarayonning aniq ko'rsatkichlarini qayd etadi. Iqtisodiyot hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti o'ltazgan tahlillarda ayollar ta'lim darajasining rivojlangan davlatlarda ayollar ta'lim darajasining oshishi iqtisodiy o'sishga sezilarli hissa qo'shgan. Aholining o'rta ta'lim olgan yillari bir yilga ortganida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iqtisodiy ishlab chiqarish hajmi o'rta o'rta o'n foizga yaqin oshishi kuzatiladi. Shu bilan birga, ayollar ta'lim darajasi erkaklar bilan tenglasha borishi iqtisodiy o'sish sur'atini yanada oshirishi aniqlangan.

Ushbu raqamlar ortida odiy iqtisodiy mantiq yotadi. Ta'lim insonning bilim, malakasi, mehnat

Men har bir askar, Vatanning har bir posboni Amir Temur va ulug' lashkarboshilarimiz o'g'itlarini, ularning harbiy merosini chuqur bilishi kerak deb qayta-qayta ta'kidlab kelaman. Bu o'lmas va bebaho meros hozirgi kunda ham har birimizning qalbimizga cheksiz g'urur baxsh etadi, muqaddas tuprog'imizga sadoqat tuyg'ularini kuchaytiradi.

Shavkat MIRZIYOYEV,  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

# “ZAFARNOMA” larning QO'LYOZMA NUSXALARI VA ULARNI O'RGANISH TARIXI

Amir Temur to'g'risida u hali hayotlik chog'ida va vafotidan keyin, hatto bir necha asr o'tgandan so'ng ham yozilgan asarlar salmog'i hayratli darajada katta. Zero, Amir Temur siyosiy merosi nafaqat O'rta Osiyo, balki jahonning ayrim o'rta asr hukmdorlari merosiga qiyoslaganda ham juda beqiyos. Shunday bo'lsa-da, Amir Temur faoliyatini to'liq aks ettiruvchi, Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiy qalamiga mansub “Zafarnoma”lar tadqiqotchilar uchun asosiy manba bo'lib qolmoqda. Chunki ularda real tarixiy voqealar aks etgan.

deyarli murojaat etishmagan. Ali Yazdiy “Zafarnoma”si esa temuriylardan keyingi o'rta asr mualliflari uchun dasturlamal bo'lib xizmat qilgan.

Ali Yazdiy “Zafarnoma”siga birinchi bo'lib murojaat qilgan, unga baho bergan o'rta asr muallifi Abdurazzoq Samarqandiy hisoblanadi. U “Matlai sa'dayn va majmuai bahrayn” (“Ikki saodatli yulduzning chiqish va ikki dengizning qo'shilish joyi”) asarida Ali Yazdiy va uning “Zafarnoma”sini bir necha bor tilga oladi.

Hofiz Tanish Buxoriy “Sharafnomayi shohiy” (“Abdullanoma”)ni yozishda (XVI asr) Ali Yazdiy “Zafarnoma”sidan foydalangan va muallifni hurmat bilan “mavloni” deb tilga olgan. Tug'luq Temurning nasl-nasabi bayonida so'z yuritganda, Ali Yazdiy va uning asarini

“Zafarnoma”larni ilmiy o'rganish, ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlash, faksimile nusxalarini e'lon qilish Yevropada boshlandi. Ali Yazdiy “Zafarnoma”si qo'lyozma nusxalaridan birining taqdiri xususida “O'zFA Sharq qo'lyozmalari to'plami”da qiziq bir ma'lumotga duch kelamiz. Ali Yazdiy “Zafarnoma”sining 1629-yil Samarqandda ko'chirilgan 12 ta miniatyuradan iborat chiroyli qo'lyozma nusxasi aslida Qo'qon xoni Xudoyorxon xazinasiga tegishli bo'lgan. Ushbu qo'lyozma 1897-yil Parijga, Jahon ko'rgazmasiga yuboriladi. Qo'lyozma egasiga 300 tilla rubl taklif qilingan bo'lishiga qaramay, u sotilmagan. Qo'lyozma Toshkent shahri Shayxontohur dahasi qozisi Eshonxon Muhiddinxo'ja qo'lga kelib tushadi. Uning vafotidan so'ng vorislaridan biri, ya'ni Nasriddin Norxo'ja 1939-yil qo'lyozmani

Tajribamda ko'rilmankim, azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, jang ko'rgan, mard, shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir. Chunki tajribali bir kishi minglab kishiga ish buyuradi.


Ishlarimning barini kengash bilan yurg'izib, uni bitirishda to'g'ri tadbir qo'llar edim. Bir ishga kirishmay turib, undan chiqish yo'llarini o'ylab ko'yar edim. Uni to'g'ri tadbir, qat'iy jazm, sabr-chidam ko'rsatib, ehtiyotkorlik bilan uzog'ini o'ylab, ortini esdan chiqarmagan holda oxiriga yetkazardim.

Yana tajribamdan o'tkazdimki, kengash ahli birlik, ittifoqlik bilan so'zda sobit, ishda chidamli bo'lislari shartdir. Qilmoqchi bo'lgan ishlarini qilmasdan qoldirmasunlar. Agar biror ishini qilmaslikka so'z berar ekanlar, uning yaqiniga ham yo'lamasunlar.

Ochiq yuzlilik, rahm-shafqat bilan xalqni o'zimga rom qildim. Adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzalqroqda bo'lishga intildim.

Aqli kishilar va kengash sohiblari, ehtiyotkor, qat'iyatli arboblal, keyinini o'ylab, olisni ko'rib ish yurituvchi, keksa va tajribali kishilarni xos majlismiga kiritib, ularning suhbatlaridan, ishlaridan naf olib, tajribalar hosil qilardim.

“Temur tuzuklari”dan



Amir Temur shaxsiyati doston, qissa va nazmiy asarlarda rivoyatlarga o'rab talqin qilingani xususida ko'plab misollar keltirish mumkin. Nizomiy taxallusli o'rta asr muallifining XIX asr boshlarida ko'chirilgan “Qissai Amir Temur”, Mirza Rumuzning 1712-yilda yozilgan “Temurnoma”, Sayyid Muhammadxo'janing 1887-yilda ko'chirilgan “Dostoni Amir Temur”, Mullo Salohiddin Toshkandiyning 1908-yilda toshbosma usulida chop etilgan “Temurnoma” asarlari shular jumlasidan. Ularda Amir Temur shaxsiyati ba'zan afsonaviy qahramonlardek tasvirlangan.

Yuqorida tilga olingan ikki muallif, ya'ni Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”lari bir-biridan qo'lyozma nusxalar soni, tarqalish geografyasi va o'rta asr mualliflari hamda tadqiqotchilar tomonidan istifoda etish darajasi bilan farqlanadi.

Sharafuddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”sining dunyo bo'ylab tarqalgan qo'lyozma nusxalari umumiy soni bugungi kunda taxminan 100 dan ortiq. Eng qadimgi qo'lyozma nusxalari Sankt-Peterburgdagi Rossiya Milliy kutubxonasi, Rossiya FA Sharq qo'lyozmalari institutida saqlanadi. Shuningdek, Tehron, Mashhad kutubxonalari, Britaniya muzeyi, Fransiya Milliy kutubxonasi, Istanbuldagi Nuri Usmoniya kutubxonasi, Garvard badiiy muzeyi, O'zFA Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan qo'lyozma nusxalar tarixiy, badiiy, axborot qimmatli yuqoriligi bilan Amir Temur faoliyatini o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi. Bu asarning turli davrlarda ko'chirilgan 30 ga yaqin qo'lyozmasi bugungi kunda O'zFA Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Xususiy kolleksiyalarda saqlanayotgan va hali kataloglashtirilmagan nusxalari ham bor.

Amir Temurga bag'ishlab yozilgan ko'plab qo'lyozma asarlar borligiga qaramay, jahon, jumladan, o'zbek temurshunosligida Ali Yazdiyning Amir Temur vafotidan 20-yil keyin yozilgan “Zafarnoma”siga nisbatan ustuvorlik beriladi. Nega shunday? Vaholanki, Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma”si Amir Temur hayotlik paytida yozilib, Sohobqiron

nazaridan o'tgan va u boshqa ko'plab asarlarga manba bo'lib xizmat qilgan. Gap shundaki, Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma”si nusxalari Ali Yazdiy “Zafarnoma”siga nisbatan kam saqlangan va bizgacha bor-yo'g'i ikki nusxada yetib kelgan. Biri Istanbuldagi Nuri Usmoniya kutubxonasi, ikkinchisi Londondagi Britaniya muzeyida saqlanadi. Istanbul nusxasi 1425-yilda, London nusxasi 1434-yilda ko'chirilgan.

Har ikkala “Zafarnoma” o'rta asrda musharaklik va o'ziga xoslik mavjud. Muayyan voqealar bayonida ular bir-birini takrorlasa-da, yaxlit olganda, bir-biridan mustaqil asarlardir. Shomiy “Zafarnoma”si Hofizi Abruning asarga yozgan muqaddima va ilovasi bilan birga 120 bob va 646 sahifani tashkil qilsa, Ali Yazdiy “Zafarnoma”si muqaddima, xotima, 329 bob va 637 sahifadan iborat. Demak, Ali Yazdiy “Zafarnoma”sining boblar bo'yicha ustuvorligi asar voqealari batafsilligini, tasvirlarning detallashtirilishini ta'minlagan deyish mumkin. Masalan, Shomiy Amir Temurning ona avlodi xususida bir so'z ham aytmagan, Ali Yazdiy esa asar boshidayoq Sohobqironning validasi nomini tilga olib, Takina Xotun ekanini ta'kidlaydi.

Nizomiddin Shomiy “loy jangi” iborasini mutlaqo ishlamagan. Bu voqea tafsilotlarini muallif 1360-yil (kuni hozirgi hisobda 16-iyun) bilan belgilaydi va shu kuni kuchli yong'ir yoqganini yozadi. Ali Yazdiy “loy jangi” iborasini ishlatish barobarida, Shomiydan farqli o'laraq, jang sanasini javzo mavsumiga nisbatan berib, 1365-yil (hozirgi hisobda 21-may bilan 21-iyun oralig'ida) bo'lib o'tganini qayd etadi.

Voqealarni tasvirlashda har ikki asar o'rta asrdagi bunday farqlarni yana kuzatish mumkin. Lekin har ikkala asarda ham Amir Temurni ulug'lash, buyukligini e'tirof etish g'oyasi bayon etilayotgan voqea-hodisalar mazmuniga singdirilgan.

Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma”si asarga murojaat qilish darajasi bilan Ali Yazdiyning nisbatan quyiyoqda turadi. Tarqalish geografyasi torligi oqibatida yuzaga kelgan tadqiq qilish imkoniyati cheklagan asarga murojaat qiluvchilar soni qisqarishiga olib kelgan. Movarounnahr o'rta asr mualliflari Nizomiddin Shomiyga



ehtiromlar bilan eslab o'tadi: “Uning (Tug'luq Temurning) nasabi zamoningning sharafti va jahonning eng latifi mavlono Sharafuddin Ali Yazdiyning (kitobi) “Zafarnoma” muqaddimasida sharh qilingandi”.

Ali Yazdiy “Zafarnoma”si XVIII asrda ham o'rta asr mualliflari e'tiborida bo'lganini noma'lum xatot tomonidan “Nusxayi Amir Temuriy” nomi bilan 1792-yil Buxoroda ta'lif etilgan qo'lyozma orqali bilish mumkin. Sharqshunos olim B.Qazoqovning (1936-2014) aniqlashicha, ushbu qo'lyozma Sharafuddin Ali Yazdiy, Hofizi Abru, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond, Hofiz Tanish Buxoriy kabi muarrixlar asarlaridan olingan ma'lumotlardan iborat bo'lib, unga “Nusxayi Amir Temuriy” nomi bilan tartib berilgan va muallif sifatida Sharafuddin Ali Yazdiy nomi qayd etilgan. Bu asar Amir Temur tarixi bilan birga XV asr boshlarida Movarounnahr tashqari hududlar, jumladan, Kavkazorti, Volgabo'yining ijtimoiy-siyosiy hayoti haqida ham bahs yuritadi.

o'zaro kelishuv asosida Toshkent ommaviy kutubxonasi (Tashkentskaya publitschnaya biblioteka) sotadi. Diniy ilmlar bilimdoni bo'lgan muftiy Nasriddin Norxo'ja keyinchalik O'zFA Sharqshunoslik instituti ilmiy xodimi lavozimida faoliyat ko'rsatib, 1958-yilda vafot etgan.

Har ikki muallif “Zafarnoma”lari asosida Yevropada Klavix, Pyetro Perondino de Prato, Sansha, Ivanin, Bartold, Jan-Pol Ru, Garold Lemb va ko'plab boshqa tadqiqotchilar Amir Temur faoliyatini o'rgangan. Ali Yazdiy “Zafarnoma”siga ko'p murojaat qilgan sharqshunoslardan biri V.V.Bartolddir. U 1918-yil e'lon qilgan “Ulug'bek i yego vremya” (“Ulug'bek va uning zamonasi”) asarini yozishda qator qo'lyozmalar, jumladan, Ali Yazdiy “Zafarnoma”sidan ham foydalangan. Shu bilan birga, ayrim masalalarga aniqlik kiritishda Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma”siga murojaat qilgan. Bartold Yevropaga ilmiy safari davrida Nizomiddin Shomiyning Britaniya muzeyida

saqlanayotgan “Zafarnoma”si qo'lyozmasi bilan tanishadi va uni ilmiy o'rganadi.

Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma”sini keng ilmiy jamoatchilik e'tiboriga havola qilgan yevropalik sharqshunos Feliks Tauer hisoblanadi. U 1937 va 1957-yillarda Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma”sining ilmiy-tanqidiy matnini ikki jildda Pragada nashr etdi. Asarning Praga ilmiy-tanqidiy matni nashri keyingi tadqiqotlar uchun keng yo'l va imkoniyatlar eshigini ochdi. 1949-yil ushbu nashr asosida asar Anqarada turk tiliga o'girildi. 1969-1972-yillarda O'zFA Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi Yunusxon Hakimjonov Feliks Tauer nashri asosida Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma”sini o'zbek tiliga tarjima qildi. Lekin o'sha yillari Amir Temurga munosabatga mafkuraviy tus berilishi oqibatida bu tarjima keng ilmiy jamoatchilikka taqdim etilmadi. Lekin sarflangan mehnat samarasiz qolib ketmadi. Atoqli sharqshunos olim A.O'rinboev rahbarligida O.Bo'riyev, H.Karomatov,

A.Hakimjonovdan tashkil topgan ilmiy jamoa Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma”sining avvalgi tarjimasini qayta ko'rib chiqib, tuzatish, to'ldirish, aniqlash, ko'rsatkichlarni boyitish bilan 1996-yilda uning o'zbek tilidagi ilmiy-izohli tarjimasini nashr etdi.

Ali Yazdiy “Zafarnoma”sining o'zbekcha tarjimasini mavjudligi borasida dastlabki ma'lumotlarni o'zbek ma'rifatparvari Miyon Buzruk (1891-1938) taqdim etgan. U o'tgan asrning 20-yillari Istanbulda bo'lgan davrida Nuri Usmoniya kutubxonasi asarining o'zbek tilidagi qo'lyozmasi bilan tanishadi. Miyon Buzrukning yozishicha, shayboniy Ko'chunchixon buyrug'i bilan asar Muhammadali ibn Darveshalixon tomonidan forsiydan o'girilgan. Ali Yazdiy “Zafarnoma”sining tarixiy manba sifatidagi ahamiyati emas, ko'proq uning til xususiyatlari Miyon Buzruk e'tiborini tortgan.

Ahamiyatli, Miyon Buzruk Istanbuldagi Nuri Usmoniya kutubxonasi ta'riflashgan Ali Yazdiy “Zafarnoma”sining qo'lyozma nusxasini 1997-yil tabdil qilib, kengaytirilgan so'zboshi, ilmiy izoh va ko'rsatkichlar bilan nashr etish ikki zabardast o'zbek olimi Ashraf Ahmedov va Bobobek Haydarbekov zimmasiga tushdi va ular bu ishni mukammal darajada ado etishdi.

Amir Temurga bag'ishlangan “Zafarnoma”larni o'rganish hamon jahon temurshunosligi e'tiborida bo'lib kelmog'ida. Bugungi kunda Muhammad Shafi, Shiro Ando, Jon Vudz, Charl Melvill, Ilker Evrim Binbash, J.Tulibayeva, A.Arslanova va boshqa olimlar “Zafarnoma”larni o'rganishni davom ettirmog'ida.

Jahondagi kutubxona, ilmiy muassasalar, tadqiqot markazlari va shaxsiy kolleksiyalarda saqlanayotgan “Zafarnoma”lar qo'lyozma nusxalarining umumiy soniga aniqlik kiritish, kodikologik tahlilni amalga oshirish, matnlar kompozitsion tuzilishini tahlil qilish temurshunoslik oldida turgan vazifalardan biridir.

Halim TO'RAYEV,  
tarix fanlari doktori,  
BuxDU professori